



Fatxullayeva Iroda

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti o'zga tilli guruhlarda
o'zbek tili yo'nalishi, 3-bosqich talabasi*

Annotasiya: Ushbu maqolani yozishdan maqsad o'zbekning mard o'g'lonlarining tinchlik uchun kurashganlari va tinchlik uchun shukrona qilish, vatanga bo'lgan muhabbatni qalblarga yanada chuqur his ettirish uchun yozildi.

Kalit so'zlar: G'urur, o'zlik, mehribon, mas'uliyat, qiyinchilik.

Xalqimizning sevimli ijodkori Xudoyberdi To'xtaboyev bolalar uchun yozgan asarlari bilan faqatgina bolalarni emas, balki kattalarning ham qalbida g'urur, iftixor, hali uyg'onmagan qalblarda vijdon uyg'otdi.

Ayniqsa "Besh bolali yigitcha" asarini o'qib yig'lamagan ko'zlar, ezilmagan qalb bo'lmasa kerak. Agar bo'lsa ham u yurak muzlagan. Haqiqiy o'zbek o'g'loni Orifjon mitti yelkasi bilan 5 bolani katta qilishga, uy ishlarini qilishga majbur emas edi va uni hech kim majburlamadi.

Orifjonning o'zi bu mas'uliyatni his qildi, harakat qildi, barchasi uchun kurashdi. Ey Orifjon, seni o'qiganimdan beri uyqumda halovat yo'q. Sendek o'g'lonlar yurt tinchligi uchun qanchalar qiynalganlar, bolalik gashtini surmay tinchlik uchun kurashganlar. Biz esa shunga munosib farzand bo'lyapmizmi? Bir kamchiligimiz bo'lsa, ozgina charchasak noliymiz. Men ushbu maqolani sendek o'g'lonlar yurtimizda yashaganini hamma bilishi uchun yozyapman. Ishonamanki, seni bilmagan, tanimagan, seni mutolaa qilmagan inson qolmaydi.

Avvaliga ota onasi yonida bo'lsada mitti yelkasida yuk ko'targan Orifjon keyinchalik Otasi frontga ketganida bu yuk ancha og'irlashdi. 5 ta uka, opa, uy ishlari barchasi uning zimmasida edi. Oradan ko'p vaqt o'tsada otasidan xat kutaverib, kechasiyu kunduzi traktor haydab charchagan opasining ko'nglini ko'tarish ham qahramonga edi.

Otaning esa savodi yo'q, begona yurtda xat yoza olmay sarson sargardon edi. Otaning oilasidan ko'ngli to'q edi. Chunki to'ng'ich farzandiga ishonardi va ishonch oqlandi. Qorong'u kunlar ketidan zulmat yaqinlashib, opasi ham fidokorona vafot etdi.

"Mana, opamning yigirmasini ham o'tkazib yubordik, ma'rakaga to'plangan odamlar ham tarqalib bo'lishdi. Mo'tabar opam idish-tovoqlarni naridan-beri yuvgan bo'ldi-da, u ham chiqib ketdi. Parpi buvam opamni ko'mgan kunimiz ertasiga ikki oyog'i shol bo'lib yotib qolgan. To'xta xolam ham kasal, nafasi qisyapti, erta-yu kech yotgani-yotgan. Ukalarim bilan katta uyimizda o'tiribmiz. Otamni shu uydan kuzatgandik, opam bilan ham shu uyda vidolashganmiz." Shunday qilib ukalarining mas'uliyati yosh yigitchaga tushdi

Haqiqiy zulmatli kunlar keldi. O'lib qolmaslik uchun biror yegulik topaverib Orifjon ham holdan toydi. Lekin hech nolimadi. Aksincha 5 ukalari(farzandi) uchun kurashardi.



Umr so'qmoqlari ularni bolalar uyiga olib bordi, keyinchalik uzoqroqqa. Har qanday vaziyatda ham Orifjon hammani birlashtira oldi.

Mas'uliyat, metin iroda barchasi Orifjonda mujassam. Bu asarni har gal o'qiganimda o'zbek ekanligimdan faxrlanaman. Orifjon, Sen o'tgan va bugungi kun qahramonisan. Mening ham o'g'lim sendek dovyurak, mard, halol bo'lishini xohlayman. Sen mening hayotim qahramonisan besh bolali yigitcha. Mening maqolamni o'qiyotgan aziz mutolaachi sizlar ham ushbu asarni albatta o'qing. Zero, butun olamning barcha yigitlari o'zbekning bir o'g'loniga teng kelolmasligiga yana bir bor amin bo'lasiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi —2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risidagi PF-60-son Farmoni// lex.uz
2. X. To'xtaboyev "Besh bolali yigitcha" Toshkent "Yangi asr avlodi" nashriyoti 2009-yil, 81-bet.
3. Turakulova O. AI in textual analysis: unlocking patterns in literary works. International Conference on Frontier Technologies and Solutions (ICFTS-2025)